



---

## **GERMANIYADA TA'LIM TIZIMI VA NEMIS TILINI O'QITISHDA PEDAGOGIK QARASHLAR**

Karaboshev Bahrom Keldiyorovich  
Jizzax davlat pedagogika universiteti  
Fakultetlararo xorijiy tillar kafedrası

### **Annotatsiya:**

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bir qator yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlar ichida ta'lim tizimi alohida o'rin bilan ajralib turadi. Chet el davlatlari bilan hamkorlik asosida o'qitish, talaba va yoshlarimizni chet davlat universitetlarida o'qishlari uchun qator imkoniyatlar eshigi ochildi. Ushbu maqolada Germaniyadagi ta'lim tizimi, O'zbekiston bilan o'xshashliklar va nemis tilining imkoniyatlari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, bilim, malaka, tizim, universitetlar, o'qituvchi, talabalar, hamkorlik, grand.

### **Abstract:**

After gaining its independence, the Republic of Uzbekistan has achieved a number of achievements. Among these achievements, the education system occupies a special place. Cooperation with foreign countries has opened up a number of opportunities for our students and youth to study at foreign universities. This article discusses the education system in Germany, its similarities with Uzbekistan, and the possibilities of the German language.

**Keywords:** Education, knowledge, skills, system, universities, teacher, students, cooperation, grand.

### **Аннотация:**

Республика Узбекистан добилась ряда достижений с момента обретения независимости. Среди этих достижений выделяется система образования. Сотрудничество с зарубежными странами открыло ряд возможностей для



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> March, 2025

наших студентов и молодежи учиться в зарубежных университетах. В этой статье мы рассмотрим систему образования в Германии, ее сходство с Узбекистаном и возможности немецкого языка.

**Ключевые слова:** Образование, знания, навыки, система, университеты, учитель, студенты, сотрудничество, гранд.

O'zbekiston Respublikasi o'z mustaqilligini qo'lga kiritgach, bir qator yutuqlarga erishdi. Bu yutuqlar ichida ta'lim tizimi alohida o'rin bilan ajralib turadi. Chet el davlatlari bilan hamkorlik asosida o'qitish, talaba va yoshlarimizni chet davlat universitetlarida o'qishlari uchun qator imkoniyatlar eshigi ochildi. Ushbu maqolada Germaniyadagi ta'lim tizimi, O'zbekiston bilan o'xshashliklar va nemis tilining imkoniyatlari haqida so'z boradi. Germaniya va O'zbekiston o'rtasida garchi vazirliklar darajasida bitimlar imzolangan bo'lsa-da, "Nemis xalqaro rivojlanish fondi", "Adenaur jamg'armasi", "Gyote instituti" bilan munosabatlarning o'rnatilishi, albatta yoshlarimiz uchun katta imkoniyatlar yaratib berdi. Har bir davlat o'zini rivojlantirish yo'lida ta'lim tizimiga ham alohida e'tibor qaratadi. Yashash sharoiti va mentalitetidan kelib chiqqan holda usullar, qarorlar joriy qiladi. Germaniyada ta'lim tizimiga juda kata e'tibor qaratiladi. Chunki ta'lim tizimi-mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga kata xizmat qiladi. Germaniyaning O'zbekiston bilan o'xshash tomonlaridan biri ta'lim tizimining maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanishidir. Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida olgan ilk sabog'i, ko'nikmasi, bilimi uning kelajagini belgilaydi. Bu dargohda keyingi ta'lim uchun poydevor qo'yiladi va shaxsiy fazilatlar shakllanadi. Shu bois barcha ot-onalar farzandini eng yaxshi bog'chaga berishni istaydi. Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratida. Mamlakatda o'n oltita federal yer mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal yerlarda maktab ta'limida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartib-qoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart. Maktab



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> March, 2025

ta'lim tizimi boshlang'ich (primarstufe), o'rta (sekundarstufe I) va yuqori (sekundarstufe II) bosqichlarga bo'linadi. Germaniyada bolalar sertifikat va testsiz istalgan bog'chaga bemaol borishi mumkin.<sup>1</sup> Olmon diyorida bog'chalar karantin sabab yopilmaydi, shunchaki ota-onalar kasallik tarqalishi xavfidan ogohlantiriladi. Sog'ligi, qobiliyati va iste'dodidan qat'i nazar, bir-biri bilan muloqot qilishni xohlaydigan bolalar uchun hech qanday cheklov yo'q. Aksariyat mamlakatlar maktabgacha ta'lim tizimi o'xshash: asosiy tamoyil - bolani zarur bilim bilan ta'minlash, aqliy va jismoniy rivojlanish uchun maqbul sharoit yaratishdan iborat. Germaniyada bolalar tushgacha tarbiyalanar ekan, O'zbekistonda esa soat 17:30 va 18:00 ga qadar bog'chalar ishlab turadi. Tushgacha bo'lganligining asosiy sababi shundaki, bolalar qolgan vaqtini ota-onalari bilan o'tkazishlari kerak bo'ladi. Germaniyada majburiy ta'lim 6 yoshdan, o'zimizda esa 7 yoshdan boshlanadi. Bolalarga dastlabki ikki yil davomida baho qo'yilmaydi. Chunki ularning xarakteristikasi o'rganiladi. Germaniyada yana bir yutuqli taraflaridan biri, vaqtida o'qishga ulgurmagan katta yoshlilar uchun ham barcha sharoitlar yaratilgan, ular kechki vaqtda o'qishlari ham mumkin.

Germaniya dunyodagi eng ilg'or ta'lim tizimiga ega mamlakatlardan biri hisoblanadi. Bu davlatda ta'lim jarayoni aniq tizimlashtirilgan bo'lib, o'quvchilarning qobiliyatlari va qiziqishlari inobatga olinadi. Ushbu maqolada Germaniyada ta'lim tizimi va nemis tilini o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik yondashuvlar haqida so'z yuritiladi.

Germaniyada ta'lim tizimi quyidagi bosqichlardan iborat:

1. **Maktabgacha ta'lim (Kindergarten)** – 3 yoshdan 6 yoshgacha davom etadi.
2. **Boshlang'ich maktab (Grundschule)** – 6 yoshdan 10 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun majburiy ta'lim bosqichi.
3. **O'rta ta'lim (Sekundarstufe I va II)** – o'quvchilarning qobiliyatlariga qarab turli yo'nalishlarga ajratiladi:

*Hauptschule* – asosiy maktab

*Realschule* – real maktab



*Gymnasium* – universitetga tayyorlov maktabi

*Gesamtschule* – umumiy maktab

4. **Kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim** – o'quvchilar o'rta ta'limdan so'ng universitet yoki kasbiy ta'lim muassasalarida o'qishni davom ettirishlari mumkin.

Nemis tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar keng qo'llaniladi. Asosiy tamoyillar quyidagilardan iborat:

1. **Kommunikativ yondashuv** – til o'rganuvchilarning muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu metod o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlaydi va amaliy nutq ko'nikmalarini oshiradi.

2. **Integratsiyalashgan ta'lim** – nemis tili boshqa fanlar bilan bog'liq holda o'rgatiladi, bu esa o'quvchilarga tilni turli kontekstlarda qo'llash imkoniyatini beradi.

3. **Differensial yondashuv** – har bir o'quvchining individual ehtiyojlariga qarab moslashuvchan o'qitish usullaridan foydalaniladi.

4. **Innovatsion texnologiyalar** – interaktiv ta'lim vositalari, onlayn platformalar va multimedia materiallardan foydalanish o'quvchilarning tilni tezroq o'zlashtirishiga yordam beradi.

O'qituvchilik eng mashaqqatli va nufuzli kasblardan biridir. Har bir soha va yo'nalishning tag zahirida aynan shu insonlarga ta'lim va tarbiya bergan o'qituvchining xizmatlari yotadi. O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi bo'lish uchun pedagogika universitetlariga hujjat topshiriladi va 4 yillik bakalavr tizimi asosida o'qishadi. Ushbu davr mobaynida talaba 4+2 dasturi orqali maktablarda amaliyotga ham chiqadi, darslar o'tib, o'qituvchilardan amaliy ko'nikma va malaka o'rganadi. Bakalavr bosqichi tugallangandan so'ng, maktablarda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Magistratura o'qigan talabalar esa OTM larda ishlash imkoniyatiga ega bo'lishadi. Germaniyda boshlang'ich va asosiy maktabning bo'lajak o'qituvchilari olti semestr o'qishadi. O'qish tamomlagandan keyin, nomzodlarning hammasi imtihon topshirishadi. Maktablarda amaliyot o'tkazib, ikkinchi imtihonni topshirishadi. O'qituvchi lavozimiga ega bo'lgandan keyin, qoidaga ko'ra, umrbod shu lavozimga tayinlanadi. Germaniyada Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda bepul oliy ta'lim olish imkoniyati ko'proq. Nodavlat jamg'armalar hamda hukumat grantlari asosida xorijliklar ham nemis



## International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24<sup>th</sup> March, 2025

universitetlarida tahsil olishi mumkin. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, mahalliy gimnaziyalarni bitirib, yetuklik shahodatnomasi olgan yoshlar universitetlarga imtihonsiz kiradi (Lekin ba'zi yo'nalishlar, masalan, tibbiyot bo'yicha kirish imtihonlari o'tkazilishi ham mumkin). Chel elliklar esa o'qishga kirish uchun nemis tili bo'yicha imtihon (DSH-Pruefung)dan o'tadi. Universitetlarda bakalavr bosqichi to'rt yarim yilgacha, magistratura bir yildan to'rt yilgacha, doktorantura ikki yildan besh yilgacha. Odatda, bakalavriat va magistratura talabalari o'qish yakunida davlat imtihoni (staatspruefung) topshiradi va dissertatsiya himoya qiladi. Talaba o'qish uchun qishki yoki yozgi o'quv mavsumini tanlash huquqiga ega. Yozgi mavsum aprel-sentabr, qishkisi esa oktabr-mart oylarini o'z ichiga oladi.<sup>2</sup>

### Xulosa

Chet tillarini o'rgatish samaradorligini oshirish ko'p jihatdan maktabning o'quv moddiy bazasiga, o'qituvchining qanday o'quv vositalariga ega ekanligiga va o'quv jarayonida ulardan qanday foydalanishiga bog'liq. 4-6 yoshli bolalarga chet tillarini o'rgatish zarurmi va mumkinmi, degan savol uzoq vaqtdan beri amalda ijobiy hal etilgan. Ma'lumki, chet tilini o'rganish shaxsning turli tomonlarini rivojlantiradi: xotira, e'tibor, mehnatsevarlik, lingvistik taxmin. She'riy material 5-sinf o'quvchilarining nutq qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida O'qitishning metod va usullaridan biri she'riy matn bilan ishlashdir. Ushbu yo'nalishdagi cheksiz imkoniyatlar nafaqat bolalarni ijodiy faoliyatga qiziqtirishga imkon beradi.<sup>3</sup> Nemis tili darslarida o'yin texnikasini qo'llash, turli xil metodlar vositasida elektron jihozlardan foydalangan holda, darslarni tashkil etish, albatta, o'qituvchining yangi mavzu bayonini talabaga yoki maktab o'quvchisiga to'la yetkazib berishiga xizmat qiladi. Nemis tili darsi shunchaki o'yin emas. O'qituvchi va talabalar o'rtasidagi ishonch va muloqot qulayligi o'yin muhitidan kelib chiqadi. O'yin yordamida o'qituvchi talabalarni jiddiy suhbatlarga chorlaydi, har qanday real vaziyatlarni muhokama qiladi.



---

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. O‘zbek-Olmon ilmiy-madaniy jamiyati
2. „Nemis tilini o‘qitishning faol usullari“ Yulduz Ro'ziqulovna Jo'rayeva.
3. <https://Abiturtest.uz>
4. Shomansurov Shorasul "Maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillarni o'qitishning zamonaviy metodikasi – Xitoy tajribasida" 2018y.
5. Bundesministerium für Bildung und Forschung. (2023). "Das deutsche Bildungssystem."
6. Kultusministerkonferenz. (2022). "Bildung in den deutschen Bundesländern."
7. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim Vazirligi. (2023). "O‘zbekistonda ta’lim tizimi va islohotlar."
8. Goethe-Institut. (2023). "Deutsch lernen: Methoden und Ansätze."
9. UNESCO. (2023). "International Education Systems: A Comparative Study."